



UDK:635.1/.9.

**MANZARALI CHINOR (*PLATANUS ORIENTALIS*) QALAMCHASIDAN
КО'ПАYTIRISH USULLARI VA RIVOJLANISHI***Yulbasov Avazbek Muhtarovich¹**Nazirjonov Ibrohimjon Anvarjon o'g'li²**Inomjonov Shuhrat Nematjonovich³**avazbekakayulbarsov@gmail.com¹**nazirjonovi@mail.ru²**shuhratinomjonov8@gmail.com³**O'rmon xo'jaligi ilmiy-tadqiqot instituti**Andijon filiali ilmiy xodimlari*

Annotatsiya: Maqolada turli sharoitlarda manzarali chinor (*platanus orientalis*) urug'ni unib chiqishi va rivojlanishi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalari keltirilgan. Bunda manzarali sharq chinori urug'larini biogomusda undirib ko'chat tayyorlash samarali ekanligi aniqlangan va tavsiya etilgan.

Kalit so'zlar. O'rmon, sharq chinori, ko'chat, nihol, chinor, agrotexnik talablar, unib chiqish, rivojlanish, variant, urug'

Annotation: The article presents the results of studying the germination and development of seeds of the oriental plane tree (*Platanus orientalis*) under various conditions. At the same time, it was established and recommended that the preparation of seedlings by collecting eastern maple seeds into biohumus is effective.

Keywords: Forest, oriental maple, sapling, sapling, maple, agrotechnical requirements, germination, development, variant, seeds

Respublikamizda barcha tarmoqlarda olib borilayotgan islohotlar qatorida o'rmon xo'jaligida ham bir qancha islohotlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida o'rmon ekinlar strukturasining yangicha tizimi joriy qilinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 oktyabrdagi PQ-4850-sون «O'zbekiston Respublikasida o'rmon xo'jaligi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida» gi qarorida madaniy o'rmonzorlar tashkil qilish jumladan manzarali daraxtini o'stirish, ko'paytirish va uning xom-ashyosini tayyorlash sohasini rivojlantirish bo'yicha alohida chora tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda noyob manzarali daraxtlarini yetishtirish va ularni ko'paytirish manazarali noyob ko'chatlar bazasini shakllantirish ishlarini amalga oshirish bo'yicha keng ko'ladiagi tadbirlar bajarilmoqda. Bugungi kunda yurtimizda dekorativ daraxt sifatida ko'chalar, dam olish maskanlari, xiyobonlar landshaft dizaynida foydalanib kelinmoqda..



Respublikamiz xududlarida o'rmon xo'jaliklarini tashkil etish, ularni maydonlarni kengaytirish va rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamma ishlar olib borilmoqda.

Respublikamizda chinor daraxtini yetishtirish hajmi urug'lik zahiralarining shakllanish darajasi va ularni yetishtirishning mintaqaviy agrotexnologiyalarining ishlab chiqarilmaganligi bilan belgilanadi. Shu bois chinor ko'chatini biologik xususiyatlarini aniqlash va ularning yetishtirishda samarali usullarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Tadqiqot ishlari natijalari asosida chinor ko'chatlarini yetishtirishning agrotexnologiyasi ishlab chiqilmoqda. Ularni amaliyotda qo'llash olingan natijalar asosida sifatli xom-ashyo olish imkoniyatini yaratiladi.

Chinor daraxtini oilasi faqat bir turkumdan - Chinor (*Platanus*) turkumidan iborat bo'lib, uning vakillari yopiq uruglilaming eng qadimiylar turlaridan biri hisoblanadi. Chinorlar tez o'sishi bilan ajralib turadi, 30-40 m balandlikkacha o'sib, tekis rivojlangan tanasiga ega bo'ladi. Barglari yirik, shakliga ko'ra zarang barglariga o'xhash. Chinorlar bir uqli. Mevalari dumaloq sharchalar sentabr-oktabrda pishib yetiladi va bahorgacha daraxtda saqlanadi. Bahorda ular atrofga yoyilib shamol yordamida tarqaladi.

Ushbu turlardan tashqari O'zbekiston sharoitlariga (*Platanus OriyentalsL.*) zarang bargli chinor turi introduksiya qilingan va ko'kalamzorlashtirishda keng foydalilanadi. Chinor turli tuproq sharoitlarida o'stirish, uning rivojlanishi yetishtirish agrotexnologiyasini o'rganish bo'yicha O'rmon xo'jaligi ilmiy tadqiqot instituti Andijon filiali ilmiy xodimlari tomonidan chinor qalamchasidan ekish muddatlari, miqdorlari va ekish usullarining ularning o'sishi, rivojlanishi o'rganish bo'yicha ilmiytadqiqot ishlarini olib bormoqda. Agrotexnik tadbirlar – ekish muddatlari va me'yorlari, ekish usullari, o'simliklarni sug'orish va oziqlantirish muddatlari va usullari o'rganilmoqda. Chinor qalamchalarini bahorda ekib, ularning o'sishi, rivojlanishi o'rganilmoqda. Qalamchalarning yaxshi tutib ketishi va rivojlanishi uchun ularga o'tqazishdan oldin ishlov beriladi. Asosiy maqsad ekilgan qalamchalarda ildiz hosil bo'lishini tezlashtirishdir. Hech qanday ishlov berilmay o'tqazilgan qalamchalarning bir qismi tutmasligi, yana bir qismi dastlab barg va novda chiqarib keyin qurib qolishi mumkin. Bunga sabab, asosan ildizning hali yaxshi shakllanmaganligidir. Ildiz hosil bo'lish bilan yangi novdalarning o'sishi o'rtasidagi mutanosiblik buzilsa, ya'ni ildiz kechroq shakllansa qalamcha quriydi. Mart oyi boshlarida qalamchalarni ekishdan oldin qalamchalarni ular ko'milgan joyidan kovlab olinadi.



a)



b)

1 rasm. Ekish uchun tayyorlangan chinor qalamchalari*a) Qalamchalarni tayyorlash jarayoni b) Qalamchalarni ekish jarayoni*

Ularning holati tekshirilgach, sog‘lomlari pastki kurtagi ostidan (agar kesilgan joyida oqish bo‘rtamalar paydo bo‘lmagan bo‘lsa) kesib yangilanadi va ildizchalar paydo bo‘lishini tezlashtirishda o‘siruvchi moddalardan foydalanish mumkin. Bunda qalamchalarining tuproqqa ekiladigan qismi MPK, Karnavinning 0,15-0,20% li eritmasiga 1-2 sutka solib qo‘yiladi.

Qalamchalar odatda mart boshlarida, ob-havo iliq kelganda esa maxsus ish qurollari yordamida olingan egatlarga ekiladi. Agregat oldiga o‘rnatilgan egat ochgich 20 sm chuqurlikda egat ochadi. Ekish chuqurligi 12-15 sm. Tuproqqa ishlov berish hamda yetishtirilgan ko‘chatlarni mexanizatsiya yordamida qazib olish qulay bo‘lish uchun qalamchalar, asosan 70-80-90 x 10-12 sm sxemada ekiladi. Ekilgan qalamchalarining tutib ketishi uchun ularni darhol sug‘orish ishlarini amalga oshirish zarur.

Dastlabki sug‘orish qalamchalar ekib bo‘lingach martda, keyingilari aprel-mayda (2 martadan), mayda (2-3 marta), iyulda (2 marta), jami o‘suv davrida 10-12 marta sug‘oriladi. Qalamchalarining yaxshi rivojlanishi uchun, ular o‘suv davrida 2-3 marta oziqlantirilantirish lozim. Dastlabki oziqlantirish boshlang‘ich o‘sish davrining boshlarida amalga oshirilib bunda azot, fosfor, va kaliy singari organik mineral o‘g’itlardan foydalanish mumkun.

Xulosa:

1. Manzarali chinor (*Platanus*) darxti qalamchalaridan unib chiqishi va rivojlanishi bo‘yicha o’tkazilgan tadqiqotlar va yuqori ko’rsatkichlarga ega bo‘lganligini ko’rsatadi.

2. O’tkazilgan tadqiqot natijalari bo‘yicha manzarali sharq chinori qlamchalarini 12-15 sm chuqurlikda, 70-80-90 x 10-12 sm sxemada ekish va qalamchalarining tutib ketishi uchun ularni darhol sug‘orish tavsiya etiladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 oktyabrdagi PQ-4850-son «O'zbekiston Respublikasida o'rmon xo'jaligi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida» gi Qarori
2. O'zbekiston Respublikasining “O'rmon to'g'risida”gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida” gi 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli farmoni //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6сон, 70-modda.
3. Dendrologiya A.K.Qayumov, E.T.Berdiyev, Toshkent Fan texnologiya 2012 yil B. 25–28
4. JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS VOLUME – 28 | ISSUE-5 May – 2023 I.A.Nazirjonov, A.M.Yulbasov, X.M.Sultonov

